

**YOSHLAR TARBIYASIDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan ijobjiy va salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Yosh avlod ongingin shakllanishida ommaviy axborot vositalarining roli, ularning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Shu bilan birga, bu vositalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar tarbiyasi, axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviy tarbiya, zamonaviy jamiyat

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida axborot oqimi mislsiz darajada oshib bormoqda. Ayniqsa, internet, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqr kirib kelgan. Bu jarayon ayniqsa yosh avlodga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Chunki yoshlar ongingin shakllanishi, dunyoqarashi va axloqiy mezonlari aynan tashqi axborot ta'sirida rivojlanadi. Axborot vositalari orqali yetkazilayotgan ma'lumotlar ularning xulq-atvori, odob-axloqi, qadriyatlarga bo'lgan munosabati va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylangan.

Yoshlar tarbiyasi har bir jamiyatning mustahkam poydevori, kelajagi va taraqqiyot kafolati hisoblanadi. Shu bois, bu jarayonda foydalanilayotgan vositalarning tabiatini, mazmuni va ta'sir kuchi chuqr tahlil etilishi zarur. Zamonaviy axborot vositalari bir tomonidan – yoshlarni dunyodagi yangiliklardan boxabar qiladi, bilim va tafakkurni kengaytiradi, dunyoqarashni boyitadi. Boshqa tomonidan esa – noto'g'ri ma'lumotlar, ommaviy madaniyat ta'siri, zo'ravonlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlar orqali yosh ongini zaharlash xavfi mavjud. Shu sababli, ushbu maqolada axborot vositalarining yoshlar tarbiyasiga ijobjiy va salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot maydonida ongli, tanqidiy fikrlovchi, ma'naviy yetuk yoshlarni shakllantirish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Mavzu doirasida zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish borasida tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Zamonaviy axborot vositalari yoshlar tarbiyasining muhim omillaridan biriga aylangan. Bugungi kunda televideniye, internet, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar kabi kommunikatsiya vositalari yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular orqali yoshlar nafaqat axborot oladi, balki o'z dunyoqarashini shakllantiradi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu vositalarning tarbiyaviy ta'sirini bir yoqlama baholash noto'g'ri bo'ladi, chunki ular o'zida ham ijobjiy, ham salbiy jihatlarni mujassamlashtiradi. Birinchidan, zamonaviy axborot vositalari yoshlarning tafakkurini rivojlantirish, ularning bilim doirasini kengaytirish, dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, ilmiy-ma'rifiy ko'rsatuvalar, hujatli filmlar, onlayn ta'lim platformalari orqali yoshlar ko'plab ijobjiy ko'nikmalarni egallab, intellektual salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, interaktiv platformalar orqali yoshlar turli madaniyatlar, urf-odatlar va qadriyatlар bilan tanishib, bag'rikenglik, tolerantlik kabi ijtimoiy fazilatlarni o'zlashtirmoqda.

Ikkinchidan, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o'rtasida erkin muloqot va o'z fikrini ifoda etish madaniyatini rivojlantirmoqda. Bu esa demokratik jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Yoshlar bloglar, videopodkastlar, forumlar orqali ijtimoiy muammolar yuzasidan o'z nuqtai nazarini bildirishi, bahs-

munozaralarda ishtirok etishi orqali ijtimoiy faollikni oshirmoqda. Biroq axborot vositalarining ta'siri har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'liqlik, noto'g'ri axborotlarga ishonch, zo'ravonlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlarning keng tarqalishi kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Virtual muhitda vaqtning ko'p qismini o'tkazish, real ijtimoiy aloqalardan chekinish, ruhiy tushkunlik, shaxsiy hayotga befarqlik kabi psixologik muammolar ham ortib bormoqda. Psixologlar bu holatni "axborot haddan tashqari yuklamasi" (informatsion stress) deb atashadi va uning yosh ongiga salbiy ta'sirini alohida ta'kidlaydilar.

Bundan tashqari, ba'zi axborot manbalarida diniy ekstremizm, radikalizm, pornografiya, qimor o'yinlari, giyohvandlikni targ'ib qiluvchi kontentlar ham uchrab turadi. Bu esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy yetukligiga, ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga putur yetkazadi. Ayniqsa, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi hali to'liq shakllanmagan yoshlar uchun bunday axborotlar katta xavf tug'diradi. Shu munosabat bilan yoshlar tarbiyasida axborot vositalaridan foydalanish masalasiga ongli yondashuv zarur. Bu borada quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

1. **Axborot madaniyatini shakllantirish** – yoshlarni axborotni tanlash, tahlil qilish va undan foydali xulosa chiqarishga o'rgatish.
2. **Ota-onalik va pedagogik nazoratni kuchaytirish** – bolalar va o'smirlar tomosha qilayotgan materiallar ustidan doimiy nazorat o'rnatish.
3. **Ma'naviy-imkonli muqobil axborot vositalarini yaratish** – yoshlar uchun milliy qadriyatlarga asoslangan, tarbiyaviy ahamiyatga ega kontentlar ishlab chiqish va targ'ib qilish.
4. **Media savodxonlik darslarini joriy etish** – o'quvchilarda axborotni tanqidiy qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Zamonaviy axborot vositalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati bugungi kunda tobora ortib bormoqda. Har bir yosh shaxsning shakllanishida, uning ijtimoiy faolligi, tafakkuri, hayotga bo'lgan qarashi va ma'naviy-axloqiy kamolotida ommaviy axborot vositalarining ta'siri inkor etib bo'lmaydigan darajaga yetgan. Bu vositalar orqali yoshlar dunyo yangiliklari, fan-teknika yutuqlari, turli madaniyatlar bilan tanishadi, o'z bilim va salohiyatini oshirishga intiladi. Shu ma'noda, axborot vositalari ularga keng imkoniyatlar, tezkor axborot almashinuvi va global dunyo bilan muloqot qilish imkonini bermoqda. Biroq bu jarayon bir tomonlama emas. Axborot vositalarining tarbiyaviy ta'siri doimo ijobiy yo'nalishda kechmaydi. Afsuski, bugungi real voqelikda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga haddan ziyod qaramlik, noto'g'ri va zararli axborotlarga ishonish, zo'ravonlik yoki axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlarga berilish holatlari ham keng uchramoqda. Bu esa yosh avlodning ongli qarorlar qabul qilishiga, ruhiy holatiga va axloqiy qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotga boy, lekin tanqidiy tahlilsiz qabul qilinayotgan mazmunlar yoshlarni passiv iste'molchiga aylantirib qo'yishi, ularni hayotdagi real muammolar oldida ojiz qoldirishi mumkin.

Shunday sharoitda yoshlar tarbiyasida axborot vositalaridan foydalanish masalasiga jiddiy yondashish, bu vositalarning salohiyatini ongli boshqarish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa, eng avvalo, yoshlar ongida axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantirishni, media madaniyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Ota-onalar, o'qituvchilar, pedagogik jamoa va butun

jamiyat axborot vositalarining ta'sirini chuqur anglab, yoshlar uchun ma'naviy jihatdan boy, tarbiyaviy ahamiyatga ega kontentlar bilan to'ldirilgan sog'lom axborot muhitini yaratishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, axborot vositalari yoshlar uchun kuchli tarbiyaviy vosita bo'lishi mumkin, agar ulardan oqilona, nazorat ostida, maqsadli foydalanilsa. Aks holda, bu vositalar yosh ongiga zarar yetkazuvchi omilga aylanishi mumkin. Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalar va media imkoniyatlari taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lgan bir davrda, yoshlar tarbiyasini bu jarayondan ajratib emas, balki uni ongli boshqarilgan va maqsadli yo'naltirilgan shaklda olib borish muhimdir. Faqat shunda biz sog'lom, ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli avlodni voyaga yetkazish yo'lida barqaror taraqqiyotga erisha olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobojonov Sh. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ongga ta'siri. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 212 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 176 b.
3. Rahimova N.K. Zamonaviy axborot muhitida yoshlar tarbiyasi: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 145 b.
4. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2019. – 126 p.